

# O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi kimyo sanoat mahsulotlarining 1-iyul sanasidagi savdo yakunlari

// 01 July 2022 yil

<https://special.uzkmyosanoat.uz/oz/press/news/birja20220701>



"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi o'z savdo maydonchasi orqali tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan kimyo mahsulotlari savdosining 2022-yil 1-iyul sanasidagi yakuni bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etadi.

Joriy yilning 1-iyul kuni "O'zkimyosanoat" AJ tizimidagi korxonalar tomonidan O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi ochiq birja savdolari orqali 9883 tonna 25224,1 mln. so'mlik mineral o'g'itlar sotildi. Bir

kun oldin bu ko'rsatkich yuqori bo'lgan, ya'ni 30-iyun kuni 35461,3 mln. so'mlik 14053 tonna mineral o'g'itlar sotilgan.

Birja savdolariga tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan ammiakli selitra, karbamid, sulfat ammoniy, ammosof, PS-Agro, kaliyli o'g'itlar, superfosfat azot-fosforli o'g'it kabi mahsulotlar qo'yildi. Savdoga qo'yilgan mineral o'g'itlardan ammiakli selitra eng ko'p sotilgan mahsulot bo'lib, sotuvning 52,3 foizini tashkil etdi.

Shuningdek, "O'zkimyosanoat" AJ tizimidagi korxonalar tomonidan mineral o'g'itlardan tashqari bugungi kun sanoatida keng qo'llanilayotgan PVX, kaustik soda, formalin, natriy gipoxlorid, kalsinasiyalangan soda, azot kislotasi va suyuq kislorod kabi bir qator kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Ular ham doimiy ravishda birja savdolariga qo'yib boriladi. 1-iyul kuni jami 3848,4 mln. so'mlik boshqa turdag'i kimyo mahsulotlar sotildi. Bir kun oldin bu ko'rsatkich past bo'lgan, ya'ni 30-iyun kuni 2061,5 mln. so'mlik boshqa turdag'i kimyo mahsulotlari sotilgan. Sotuvning asosiy qismini, ya'ni 77,2 foizini kalsinasiyalangan soda mahsuloti tashkil etdi.

O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi "O'zkimyosanoat" AJ savdo maydonchasi orqali tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar savdosи bo'yicha barcha ma'lumotlarni [www.uzkmyosanoat.uz](http://www.uzkmyosanoat.uz) rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi <https://t.me/uzkmyosanoat> va <https://www.facebook.com/uzkmyosanoat/> rasmiy sahifalari orqali olishingiz mumkin.

Mahsulotlarni yetkazib berish va ularning sifat darajasi bo'yicha taklif va e'tirozlaringiz bo'lsa, (78) 140-74-48 ishonch telefon raqamiga murojaat qilishingiz mumkin.

**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**